



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<i>Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<i>Omonova Nilufar Parda qizi</i>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<i>Xujanova Shaxina Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
<i>Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</i>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</i>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<i>Ramozonova Bahroy Sadriddinovna</i>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<i>Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi</i>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<i>V. Sh. Raximov</i>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
<i>Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</i>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
<i>Vasila Yusupova</i>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
<i>B. X. Sharopov</i>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
<i>Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</i>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<i>J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<i>S. A. Qarshiboyev</i>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<i>Suyunov Rustam Sadriddinovich</i>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
<i>Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</i>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<i>S. S. Qulmurodova</i>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<i>Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</i>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадирова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING REFLEKSIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA ILMIY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar
tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, mohiyati hamda ilmiy-nazariy pedagogik asoslari kompleks tarzda tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya jarayonining tutgan o'rni, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Refleksiv kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi, xususan, kognitiv, faoliyatli va shaxsiy komponentlari, uning shakllanish bosqichlari hamda rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar ilmiy jihatdan asoslangan. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini tahlil qilish, baholash va o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida refleksiv kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar, tashkiliy-didaktik omillar hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: refleksiya, refleksiv kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik faoliyat, kasbiy rivojlanish, refleksiv fikrlash, o'z-o'zini tahlil qilish, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati.

Abstract: The content, essence, and scientific-theoretical pedagogical foundations of developing reflective competence in future teachers are comprehensively analyzed. The role of reflection in the professional activity of teachers within the modern education system, as well as its significance for personal and professional development, is revealed. The structural components of reflective competence, particularly cognitive, activity-based, and personal components, its stages of formation, and the pedagogical mechanisms contributing to its development are scientifically substantiated. The didactic possibilities of developing reflective competence within the framework of the competence-based approach, as well as the formation of future teachers' skills in self-analysis, self-assessment, and improvement of their own pedagogical activity, are discussed. In addition, the necessary pedagogical conditions, organizational and didactic factors, and effective ways of organizing the educational process aimed at developing reflective competence in higher education institutions are identified.

Key words: reflection, reflective competence, future teacher, pedagogical activity, professional development, reflective thinking, self-analysis, pedagogical technologies, competence-based approach, quality of education.

Аннотация: Комплексно проанализированы содержание, сущность, а также научно-теоретические педагогические основы развития рефлексивной компетентности будущих учителей. Раскрыта роль процесса рефлексии в профессиональной деятельности педагога в современной системе образования, а также его значение для личностного и профессионального развития. Научно обоснованы структурные компоненты рефлексивной компетентности, в частности когнитивный, деятельностный и личностный компоненты, этапы её формирования, а также педагогические механизмы, способствующие её развитию. Освещены дидактические возможности развития рефлексивной компетентности в рамках компетентностного подхода, а также вопросы формирования у будущих учителей навыков самоанализа, самооценки и совершенствования собственной педагогической деятельности. Кроме того, показаны необходимые педагогические условия, организационно-дидактические факторы и пути эффективной организации учебного процесса, направленные на развитие рефлексивной компетентности в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивная компетентность, будущий учитель, педагогическая деятельность, профессиональное развитие, рефлексивное мышление, самоанализ, педагогические технологии, компетентностный подход, качество образования.



KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki o'z faoliyatini tahlil qila olishi, mustaqil qaror qabul qilishi va o'z ustida ishlashga qodir bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Refleksiya tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda shaxsning o'z ichki kechinmalari, fikrlari hamda faoliyat natijalarini anglash, tahlil qilish va baholash jarayoni sifatida talqin etiladi. O'qituvchining refleksiv qobiliyatlari uning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik faoliyat murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligi hisobga olinsa, refleksiv yondashuv o'qituvchiga o'z tajribasini tahlil qilish va uni takomillashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonida refleksiv kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki refleksiv kompetentlik o'qituvchining o'z bilim va ko'nikmalarini baholash, kasbiy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishni talab etadi. Jumladan, o'quv jarayoniga refleksiv faoliyatni integratsiya qilish, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarni o'z faoliyatini tahlil qilishga undovchi vazifalar, muammoli vaziyatlar va amaliy topshiriqlar orqali ularning refleksiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda ta'lim sifati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy kompetentligiga, xususan, uning refleksiv faoliyatni amalga oshirish darajasiga bog'liqdir. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy jihatdan takomillashtirish zarurati mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni hamda ilmiy-nazariy pedagogik asoslarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: refleksiya va refleksiv kompetentlik tushunchalarining mohiyatini ochib berish, refleksiv kompetentlikning tarkibiy tuzilmasini aniqlash, uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash hamda samarali metod va vositalarni aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar refleksiya tushunchasining mazmun-mohiyatini, uning pedagogik faoliyatdagi o'rni hamda refleksiv kompetentlikning shakllanish mexanizmlarini turli jihatlardan yoritib beradi.

Refleksiya tushunchasi ilk bor falsafiy tafakkur doirasida shakllangan bo'lib, keyinchalik pedagogika va psixologiya fanlariga keng tatbiq etilgan. Amerikalik pedagog olim J. Dewey refleksiyani shaxsning tajribaga asoslangan fikrlash jarayoni sifatida izohlaydi va uni muammoli vaziyatlarni hal etishning muhim vositasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, refleksiya insonning o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish va yangi bilimlar hosil qilishiga xizmat qiladi.

Keyinchalik D. Schön tomonidan refleksiya tushunchasi yanada rivojlantirilib, u "refleksiv amaliyot" (reflective practice) konsepsiyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, o'qituvchi o'z faoliyatini jarayonida doimiy ravishda "harakatdagi refleksiya" (reflection-in-action) va "harakatdan keyingi refleksiya" (reflection-on-action)ni amalga oshirishi lozim. Bu yondashuv pedagogik faoliyatni takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiyalik olimlar V.A. Slastenin, A.K. Markova, E.F. Zeerlar tomonidan refleksiv kompetentlik o'qituvchining kasbiy muhim sifati sifatida e'tirof etilgan. V.A. Slastenin refleksiyani pedagogning o'z faoliyatini anglash va baholash jarayoni sifatida talqin etib, uni kasbiy mahoratning ajralmas qismi deb hisoblaydi. A.K. Markova esa o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda refleksiyaning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari keng o'rganilmoqda. Jumladan, zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning innovatsion va refleksiv faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvni qo'llash o'qituvchilarning mustaqil fikrlashi va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Masalan, refleksiv kundaliklar, portfoliolar, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish hamda keys-stadi metodlari talabalar refleksiv fikrlashini rivojlantirishda samarali vositalar sifatida e'tirof etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish masalasi yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, uning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tizimli ravishda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida refleksiv kompetentlikni shakllantirishning samarali metodikasi va texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish muammosi nazariy va amaliy jihatdan kompleks o'rganildi. Olingan natijalar refleksiv kompetentlikning tizimli xarakterga ega ekanligini hamda uni rivojlantirish maqsadli pedagogik ta'sirni talab etishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida refleksiv kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi, rivojlanish darajalari, pedagogik shart-sharoitlari va samarali metodlari aniqlashtirildi.

1. Refleksiv kompetentlikning tarkibiy modeli

Ilimiy tahlillar asosida refleksiv kompetentlikning quyidagi integrativ modeli ishlab chiqildi:

1. **Kognitiv komponent** – refleksiya mohiyati, uning turlari, shakllari va usullari haqidagi bilimlar tizimi. Ushbu komponent talabada refleksiv faoliyatni ongli ravishda tashkil etish uchun nazariy asos yaratadi.

Operatsion (faoliyatli) komponent – refleksiyani amaliyotda qo'llash ko'nikmalari. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- o'z faoliyatini tahlil qilish;
- pedagogik vaziyatlarni baholash;
- xatolarni aniqlash va tuzatish;
- refleksiv yozuvlar yuritish.

2. **Motivatsion-shaxsiy komponent** – refleksiv faoliyatga nisbatan ichki ehtiyoj va ijobiy munosabat. Bu komponent o'z-o'zini rivojlantirishga intilish hamda kasbiy o'sishga motivatsiya bilan tavsiflanadi.

3. **Baholovchi (regulyativ) komponent** – o'z faoliyatini nazorat qilish va baholash, natijalarni tahlil qilish hamda kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish qobiliyatlari.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, refleksiv kompetentlik aynan ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan natijalarni mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, refleksiya pedagogik faoliyatni takomillashtirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, olib borilgan tadqiqot natijalari J. Dewey tomonidan ilgari surilgan refleksiyaning tajribaga asoslangan fikrlash jarayoni ekanligi haqidagi g'oyalar bilan uyg'unlashadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, talabalar refleksiv faoliyat orqali o'z tajribalarini qayta ko'rib chiqadi va yangi bilimlarni shakllantiradi. Bu esa refleksiyaning ta'lim jarayonidagi kognitiv ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari D. Schönning "refleksiv amaliyot" konsepsiyasi bilan ham mos keladi. Tajriba-sinov jarayonida talabalar tomonidan "harakat davomida refleksiya" va "harakatdan keyingi refleksiya" elementlarining namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu esa pedagogik faoliyatni doimiy takomillashtirishda refleksiyaning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Rossiyalik olimlar V.A. Slastenin va A.K. Markova tomonidan refleksiv kompetentlik o'qituvchining kasbiy muhim sifati sifatida baholangan bo'lsa, mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi. Xususan, refleksiv kompetentlikning rivojlanishi talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasining oshishiga, ularning pedagogik faoliyatga nisbatan ongli yondashuvining shakllanishiga olib kelishi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida qo'llanilgan interfaol metodlar va refleksiv vositalarning samaradorligi zamonaviy pedagogik tadqiqotlar natijalari bilan hamohangdir. Xorijiy tajribada refleksiv kundaliklar, portfoliolar va keys-stadi metodlari refleksiv fikrlashni rivojlantirishda samarali vositalar sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda ham ushbu metodlarning yuqori samaradorligi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari refleksiv kompetentlikni rivojlantirishda individual yondashuvning muhimligini ham ko'rsatdi. Har bir talabaning refleksiv faoliyatga bo'lgan tayyorgarligi, motivatsiyasi va psixologik xususiyatlari uning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu holat refleksiv kompetentlikni shakllantirish jarayonida differensial yondashuv zarurligini asoslaydi.



Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish faqatgina alohida metodlardan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, balki tizimli yondashuvni talab etadi. Ya'ni, refleksiya ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilinishi zarur. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalarini chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish jarayoni nafaqat individual, balki ijtimoiy-pedagogik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Xususan, ta'lim muhitining ochiqligi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik darajasi hamda o'zaro ishonch refleksiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, refleksiv kompetentlikni rivojlantirishni faqat metodik yondashuvlar bilan cheklab bo'lmaydi, balki u pedagogik muhitning sifat ko'rsatkichlari bilan ham uzviy bog'liq holda qaralishi lozim.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari refleksiv kompetentlikning rivojlanishi metakognitiv jarayonlar bilan bevosita aloqador ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni, talabalarning o'z fikrlash jarayonini anglash, uni boshqarish va nazorat qilish qobiliyati refleksiv faoliyatning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bu esa refleksiv kompetentlikni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalarni qo'llash zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli ta'lim muhiti refleksiv kompetentlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, elektron portfoliolar, onlayn refleksiv kundaliklar, masofaviy ta'lim platformalari orqali talabalar o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa refleksiya jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanish refleksiv faoliyatni yanada tizimli va shaffof tashkil etishga imkon beradi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish pedagogik innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Innovatsion metodlar, xususan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va interfaol treninglar refleksiv fikrlashni faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar talabalarning faolligini oshirib, ularni o'z faoliyatiga nisbatan ongli yondashishga undaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri – refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligidir. Dastlabki bosqichda talabalar refleksiya mohiyatini tushunishga o'rgatilsa, keyingi bosqichlarda ularni amaliy faoliyatga jalb etish orqali refleksiv ko'nikmalar mustahkamlanadi. Yakuniy bosqichda esa refleksiya shaxsning doimiy ehtiyojiga aylanadi.

Biroq ayrim holatlarda refleksiv faoliyatni tashkil etishda qator muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, talabalar tomonidan refleksiyani rasmiy jarayon sifatida qabul qilish, yetarli motivatsiyaning mavjud emasligi yoki vaqt yetishmasligi refleksiv kompetentlikning to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli refleksiv faoliyatni tashkil etishda motivatsion mexanizmlarni kuchaytirish va uning amaliy ahamiyatini talabalarga chuqur anglatish muhim hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchining o'z refleksiv madaniyatiga ham bog'liqdir. Agar o'qituvchi o'zi refleksiv faoliyatni muntazam amalga oshirsa, bu talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ular uchun namuna vazifasini bajaradi. Demak, refleksiv kompetentlikni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi ham muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari refleksiv kompetentlikni rivojlantirishni zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, ayniqsa, refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan modellarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, ilmiy-nazariy asoslari hamda pedagogik shart-sharoitlari kompleks ravishda o'rganildi. Olingan natijalar ushbu yo'nalishning zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarbligini va uning pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdagi muhim o'rnini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, refleksiv kompetentlik o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etuvchi integrativ sifat ekanligi aniqlandi. U o'z ichiga kognitiv, faoliyatli, motivatsion va baholovchi komponentlarni qamrab olib, o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash hamda takomillashtirish qobiliyatlarini ifodalaydi.

Olib borilgan tahlillar refleksiv kompetentlikni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko'rsatdi. Xususan, refleksiv ta'lim muhitini tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, o'z-o'zini baholash mexanizmlarini joriy etish hamda individual yondashuvni ta'minlash mazkur jarayonning samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning uzluksiz va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligi asoslandi. Refleksiya dastlab nazariy bilim sifatida shakllanib, keyinchalik amaliy faoliyat orqali mustahkamlanishi va shaxsning doimiy ehtiyojiga aylanishi lozim.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning reflektiv kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yo'nalishda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. Muslimov N.A. O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish asoslari. – Toshkent, 2019.
4. Abdurahmonov A. Pedagogik kompetentlik va professional rivojlanish. – Toshkent, 2020.
5. Zunnunov A. Pedagogik refleksiya va ta'lim samaradorligi. – Toshkent, 2021.
6. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2019–2023.
8. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
9. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish asoslari. – Toshkent, 2015.
10. Brookfield S. Becoming a Critically Reflective Teacher. – San Francisco: Jossey-Bass, 1995.
11. www.educationnext.org

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.